

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Shermamatova S

FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Kamoliddinova Zebuniso

FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ingliz tili o'qitishning samarali zamonaviy va innovatsion metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: qiziqarli o'yinlar, zamonaviy innovatsion metodlar, chet tili o'rganishda psixik jarayonlar, "til texnikasi".

Kirish qism

Maktab listey va kollej chet til kursi ularda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlaridan mohiyati bilan tubdan farq qiladi. „Chet til“ tushunchasi quyidagicha sharhlanishi mumkin: „chet til o'rganish“ metodik termini ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv ko'nikma va malakalarini egallash manosini ifodalaydi. Nutq faoliyati turlari — gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuvni o'rgatish va til materiallari — leksika, grammatika, talaffuzni o'rgatish natijasida o'quvchilarga chet tilda o'zaro axborot (informatsiya) almashish malakalari singdiriladi. Til o'qitish metodikasiga bag'ishlangan yozma manbalar va muallimlarning kundalik muloqotlarida „o'qish texnikasi“, „yozish texnikasi“ kabi terminlar tez-tez uchraydi. O'qish texnikasi deganda, harf/birikmasining tovush bilan munosabati, yozish texnika-sida esa harfning yozilish qoidalari tushuniladi. Ushbu terminlar qatori „o'qilish qoidasi“ „yozilish qoidasi“ singari sinonimlar ham ishlatiladi. Bu ikki metodik termin qatoriga, talaffuz texnikasi“ni qo'shish o'rinlidir. Uni, boshqacha qilib, „artikulatsiya qoidasi“ deyish ham mumkin. Shunday qilib, til materialini egallashda aytish (talaffuz)ni, o'qishni va yozishni ham ozlashtirish bilan mashg'ul bo'linadi va har uchalasini birlashtirib, yagona termin — „til texnikasi“ nomi bilan yuritiladi. Chet til o'rganishni mashqlar bajarishdan iborat jarayondir deyilsa, mubolag'a yoki xato bo'l-maydi. Bu mashqning dinamika (harakat) tarafi. Uning statika (holat) jihati darslikda o'quv materiallari tarzida tashkil etilganligidadir. Chet til o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandır. O'zbek maktablarida chet til o'qitish metodikasini yaratishga atalgan qator tadqiqotlarda tajriba-sinov qilish namunasini eslab o'tish o'rinlidir. Iqtidorli metodist-olim Hoshimjon Soynazarov ilmiy ishlarida ingliz tili leksik birliklarini retseptiv planda (idrok etib tushinishda) til tajribasining ko'chish me'yori eksperimental va nazariy asoslab berilgan. Yetuk metodist prof. Tojimat Qodirovich Sattorov chet til grammatikasini faol o'zlashtirish eksperimental metodikasini ishlab chiqqan. Navbatdagi tahlil talab yordamchi tadqiqot metodlaridan yana biri - xronometrajdir. Til o'rganishga yoki ayrim nutq birliklarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt o'lchami xronometraj sanaladi. Xronometraj tadqiqot dasturiga binoan turli usul bilan o'tkaziladi. Mas. magnitofon tasmasiga yozish, tinglash va kuzatish chet til o'rganishda qo'llanadigan tadbirlardir. Chet til o'rganishda psixik jarayonlar: diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular haqidagi ma'lumotlar psixologiya kursida o'rganilgan. Chunonchi, diqqat ongning

muayyan obyektga yo 'naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shakli. Uning ikki turi ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat mavjud. Ixtiyoriy diqqatning ixtiyorsizdan farqi shundaki, birinchisida ong ishtirok etadi. Chet tilni bilish turlari uchta: aktiv, passiv va aralash holda bo 'lishi mumkin. Aktiv bilish deganda, barcha nutq faoliyati turlarini ona tilidagidek mukammal egallash nazarda tutiladi. Passiv bilish - og'zaki va yozma matnni tushuna olishdir. Ruhshunoslar va ta'limshunoslar e'tirof etishlaricha, o'quvchilarga ta'lim jarayonida yetarli miqdorda qiyinchiliklarni yengib borish o'rgatilsagina, ularning tafakkurini tezkorlik bilan rivojlantira olish mumkin. Shaxsning kamoloti faqat tafakkur rivoji bilan emas, balki uning his-tuyg'ulari ravnaqi bilan ham bog'liqdir. Chet til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish/o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better - early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturiga ingliz tilini kiritish qarori quyidagi xulosalarga asoslanib ma'qullangan: Critical Period Hypothesis states that there is a limited developmental period during which it is possible to acquire a language, be it L1 or L2, to normal, native like levels. – Kritik Davr Gipotezasi ona tili bo'ladimi, chet tilmi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqin darajada egallanishi mumkin bo'lgan chegaralangan rivojlanish davri mavjudligini ta'kidlaydi.

...Uzoqroq o'rganish davri maktab ta'limi yakuniga qadar malakalarning yuqoriroq darajada egallanishiga olib keladi. O'zbekistonda «Humanity» (Shaxsga yo'naltirilgan) konsepsiyasi qabul qilingan va unga muvofiq boshlang'ich ingliz tili ta'limida o'quvchiga ta'lim jarayoni va madaniyatlararo kommunikatsiya (muloqot)ning markaziy sub'yekti maqomi beriladi, uning qiziqish va ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ingliz tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi. Ilmiy manbalarni o'rganib chiqib boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'quvchilarning ingliz tili o'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini
2. inobatga olish.
3. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
4. Darslarda ma'noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
5. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish.
6. O'quvchilarning yoshiga mos autentik materiallardan foydalanish.
7. Nutq namunalari asosida ingliz tili o'rgatish.
8. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo'g'irchoqlar yordamida) Ilmiy manbalarni o'rganib chiqib boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini umumlashtirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124 sonli Qarori bilan har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi va 2013/2014 o'quv yilidan boshlab respublikada chet tillarni, asosan, ingliz tilini organish umumtalim maktablarining birinchi sinflaridan bosqichma bosqich joriy etildi CEFR umume'tirof etilgan me'yor bo'lib, u Yevropada zamonaviy tillarni o'rganish va o'rgatishda shaffoflik, uzviylik va izchillikni ta'minlash maqsadida 1989-1996 yillarda amalga oshirilgan «Language Learning for European Citizenship» dasturi doirasida ishlab chiqilgan va Yevropa Kengashining 2001-yildagi qarori bilan Yevropa mamlakatlarida chet til ta'lim tizimiga joriy etilishi

tavsiya etilgan. CEFR – Yevropa mamlakatlarida o‘quv reja, dustur va imtihon savollarini ishlab chiqish hamda darsliklar yaratish uchun tayanch yo‘riqnoma bo‘lib, unda til o‘rganuvchilar tildan foydalanish va samarali faoliyat olib borish uchun nimalarni o‘rganishlari, qanday bilim va malakalarni qay darajada egallashlari lozimligini bayon qilingan. Ingliz-o‘zbek tillararo tafovutlar quyidagilardan iborat:

- kelishik qo‘shimchalarining mos kelmasligi (mas. to look for – izlamoq, axtarmoq, qidirmoq (o‘zbek tilida fe’llarga kelishik qo‘shimchalari qo‘shilmaydi);
- o‘zbek tilida ayrim grammatik hodisalar mavjud emas (mas. artikl);
- ingliz tilida ko‘makchi fe’llarning ishlatilish hodisasi o‘zbek tilida mavjud emas, o‘zbek tilida otlarga qo‘shiladigan kelishik qo‘shimchalari funksiyasini ingliz tilidagi otlardan avval yoki fe’llardan keyin keladigan predloglar bajaradi. Ya’ni o‘zbek tilida fe’l otlarga turli kelishik qo‘shimchalari qo‘shilishini talab etsa (doskaga qarang), ingliz tilida ot fe’ldan avval turli predloglar kelishi lozimligini belgilaydi. Macalan, look fe’lidan keyin at, after, for, through kabi predloglardan qaysi biri kelishi lozimligini ot belgilaydi: Look at the blackboard. Look after your sister. Look for the key;
- ingliz tilida ish-harakatni ifodalashning hozirgi, o‘tgan va kelasi zamonlari ko‘p;
- o‘zbek tilida ravish fe’ldan avval kelsa, ingliz tilida u fe’ldan keyin keladi yoki o‘zbek tilida to‘ldiruvchi kesimdan oldin kelsa, (kitobni ol) ingliz tilida to‘ldiruvchi kesimdan keyin keladi (take the book). Zamonaviy boshlang‘ich ta’limdagi eng asosiy va ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan qarorlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o‘rganish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, 2-sinf dan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Bolalarga turli xil rasmlar, o‘yinlar bilan qiziqarli dars o‘tilsagina ularning qiziqishi ortadi, yanada ko‘proq o‘rganishni xohlaydi, bu esa ularda ijodkorlik ruhini yuksaltiradi.

Xulosa

Mamkatimiz ta’lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o‘qitishning ilg‘or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o‘smirlarni xorijiy tillarga o‘rgatuvchi ko‘rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o‘zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o‘tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o‘quvchilarga chet tillarni o‘rgatishda o‘quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta’kidlanganidek, birinchi sinflarda o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o‘rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mosligidir. Ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O‘yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta’limga o‘yin orqali yondashuv ta’lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O‘yin tarzidagi darslar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o‘quvchilari rasmi yoki videoli turli ko‘rishlarni juda yaxshi ko‘rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o‘stirishda o‘yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko‘p so‘z biladi?” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin jarayonida bolalarning so‘zlarni eslab qolishi, to‘g‘ri talaffuz etishiga qarab rag‘batlantirib borish zarur. Bolalarning so‘z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o‘yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab

“Meva nomlari”, “Kasblar”, “Uy jihozlari” kabi mavzulardagi mashqlarni o’yinlar yordamida bajartirish mumkin. So’ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg’un holatda ko’rsatilsa, o’quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so’zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo’ladi. O’quvchilar so’zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta’limni individuallashtirish printsipiga e’tibor berish lozim:

1. Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli.

Kundalik so'z boyligini targ'ib qilishning usullaridan biri - Touchtime Internationalning direktori doktor Eleyn Fogel Shneyderning so'zlariga ko'ra: "Bolalarga umumiy brendlar va belgilarga og'zaki yorliq qo'yishdir." U rasmdan so'zga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yordam berishini tushuntiradi. Yani bu bolalarni yangi tillarni tez va oson o'zlashtirishida juda katta yordam beradi.

2. Ovozni tanib olish va moslashtirish usuli.

Ushbu tadbir uchun kartondan kesilgan bir nechta katta harflar va shu harflar bilan boshlanadigan bir nechta kichik, ammo unchalik katta bo'lmagan narsalar kerak bo'ladi. Masalan, agar sizning harflaringiz M va K bo'lib, sizda mushuk va fil bo'lsa. Bolaga mushuk chiqaradigan ovozni aytishdan boshlang. Keyin, bolani xuddi shu tovush bilan boshlanadigan narsani topishga undab, uni harfga yopishtiring. Bezatilgan harflar sinfda saqlanishi yoki ota-onalar bilan bo'lishish uchun uyga olib kelinishi mumkin. Shnayderning ta'kidlashicha, bu mashg'ulot talabalarning sevimli narsasidir, chunki bu ularga o'z bilimlarini o'rganishda amaliy yordam beradi. Bundan tashqari, bu "shoh asar" ni keltirib chiqaradi.

3. Tabiat dunyosi bilan o'rganish usuli.

Bolalar darslarni tabiat muhitida o'zlashtirishga juda qiziqishadi. Odatda, ularni hovli bog' orqali tabiat dunyosi to'g'risida ma'lumot berish ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Bu usul o'simlikni urug'dan yetilguncha o'stirish bolalarga o'z o'sishi haqida ma'lumot beribgina qolmay, ularni chet tilidagi so'larni tez va oson o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu usul stressni yengillashtiradi va nozik vosita mahoratini oshirishga ham yordam beradi.

4. O'z faoliyatini o'quvchilarga moslashtirish usuli.

Bog'chada yodlagan o'qituvchilar qo'llanmasiga yoki odatiy darslarga qaytish oson bo'lishi mumkin. Biroq, ba'zi bolalar uchun bu muammolar tug'diradi. Gretzingerning aytishicha, bolalar an'anaviy bo'lmagan uy sharoitidagi bolalarga nisbatan sezgir bo'lishlari kerak. O'quvchilarga o'z oilalari rasmlarini chizishlarini so'rashdan oldin ikki marta o'ylab ko'rish - asrab olingan bola yoki ota-onadan ajralgan farzand qanday his qilishi mumkinligi va boshqa bolalar qanday munosabatda bo'lishlari haqida o'ylab ko'rish kerak. Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy yechimini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N"boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiy".2020
3. Tajibayev G.Sh"Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish".Namangan-2019.
4. J.Jalolov.Chet tili o'qitish metodikasi".Toshkent-2012.
5. G.Ne'matjonova "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar.
6. Shermamatova, S., & Aliyeva, M. (2023). YANGI SO'Z YODLASHNING SAMARALI USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 970-976.
7. Shermamatova, S., Sobirova, N., & Nazirova, Z. (2023). O 'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 960-964.
8. Shermamatova, S., & Abdurakhmonova, K. (2023). ENGLISH IDIOMS AND THEIR MEANINGS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 946-952.
9. Shermamatova, S., & Malikova, G. (2023). TEACHING ENGLISH TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TPR METHOD. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 252-257.
10. Shermamatova, S., & Karimova, D. (2023). XX ASR O 'ZBEK YOZUVCHILARI IJODIDA ONA OBRAZI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 506-509.
11. Shermamatova, S., & Mamadaliyeva, Y. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 488-500.
12. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2023). HISTORY OF LANGUAGES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK COUNTRIES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 310-317.
13. Shermamatova, S., & Abdullayeva, Z. (2023). TEACHING ENGLISH THROUGH THE DIRECT METHOD. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 238-242.
14. Shermamatova, S., & Nurmuxammedova, D. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA SINONIM SO 'ZLARINING QO 'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 262-266.